

**TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNI TASHKIL
QILISHNING ZAMONAVIY USLUBLARI**

Avlakulova Muslima Abdusaxatovna

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalqaro audit tizimini tashkil qilishning me'yoriy normalari va ularni tijorat banklari ichki nazorat jarayoniga tatbiq etish, ichki auditning zamonaviy uslubiyoti va boshqa shu masalaga daxldor omillar soha olimlarining bajargan ilmiy-amaliy tadqiqot ishlari, statistik tahlillari va normativ huquqiy qonunchilik bazasiga tayangan holda o'rganib chiqilgan. Mazkur amaliyotning takomillashuvi borasida tavsiyaviy xarakterga ega bo'lgan xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro audit amaliyoti qoidalari, ichki auditni tashkil etish, tijorat banklari, ichki nazorat, buxgalteriya hisobi, xalqaro buxgalterlar jamiyati, risklar, hisobot liniyasi, anomalialarni, Oxley qonuni, Bazel qoidalari.

Kirish

Xalqaro integratsiyalashuv amaliyoti natijasida xorij davlatlarining banki tizimi bo'yicha konsolidasiyalashgan moliyaviy hisobotlarini shakllantirish jarayonida ichki audit xizmatining roli va ularda amaliyotining ta'siri va auditorlik risklarini hisoblash metodikasining ta'sir doirasini hisoblash jarayonidagi muammolarni yechimini topish uchun xalqaro talablarga mos ravishda moliyaviy hisobotlarni tuzish va ularni ichki audit tomonidan rejalashtirish masalasini yechimini topish muhim hisoblanadi. Bank tizimida ichki audit risklarini aniqlash va ularni baholash, shu asosda risklarni minimallashtirish, risklarni baholashda xalqaro audit standartlaridan foydalanish bo'yicha ilg'or chet el tajribalaridan O'zbekiston bank tizimida foydalanish natijasida tijorat banklarini ichki auditini samarali tashkil qilish imkoniyati yaratiladi.¹

Jahon amaliyotida ichki auditni huquqiy asoslari ichki auditorlar instituti tomonidan ishlab chiqilgan me'yorlar asosida tartibga solib boriladi. Ushbu me'yorlarda ichki auditni shakllanishi, ta'rifi, maqsad, vazifalari va tamoyillari yetakchi o'rin egallagan. Hozirgi vaqtda xalqaro amaliyotda ichki auditning xalqaro standartlari ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan. Ichki auditni professional amaliyotining xalqaro asoslari bugungi kunda ichki audit bo'yicha davlatlararo va milliy qonunchilikning asosi hisoblanadi hamda uning bazasida qator davlatlarning boshqaruv organlariga tegishli tavsiyalar ishlab chiqilmoqda. Mamlakatlarda ichki audit faoliyatini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan bo'lib qolmoqda.²

¹ Rizayev Nurbek Qodirovich "Banklarda ichki auditni xalqaro audit standartlari asosida takomillashtirish" Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali 04/2024 maxsus son. 131-b

² A.N.To'rayev "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ichki auditni tashkil etish va uning uslubiyotini takomillashtirish" iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati Toshkent – 2019 5-b

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy pirovard maqsadi — mamlakat iqtisodiyotida bozor munosabatlari tamoyillarini to‘liq qaror toptirishdan iboratdir. Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirish yo‘lida izchil islohotlar olib borilayotgan hozirgi bosqichda tijorat banklarining mamlakat iqtisodiyotidagi roli tobora oshib bormoqda.³

Ma’lumki, tijorat banklari faoliyatiga real baho berish va omonatchilar, kreditorlar va investorlarning bank faoliyati to‘g‘risida aniq ma’lumotlarga ega bo‘lishlarida ichki audit tekshirishlari muhim ahamiyatga egadir. Tijorat banklari faoliyatida ichki auditorlik tekshiruvlarini o‘tkazish muhim hisoblanadi. Tijorat banklarida ichki audit xizmatini tashkil qilish va uni amalga oshirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2000 yil 25 noyabrdagi 405-sonli “Tijorat banklarining ichki auditiga qo‘yilgan talablar to‘g‘risidagi” yo‘riqnomasida ichki audit xizmati xodimlarining javobgarliklari belgilangan. Ichki auditning asosiy maqsadlari va vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- ichki audit tekshiruv natijalari asosida bankning real holati va ichki nazorat samaradorligining aniq holati to‘g‘risidagi ishonchli va mustaqil axborot bilan Bank Kengashini ta’minlash;

- ichki audit tizimini va ichki audit tekshiruv jarayonlarining samaradorligini baholash va tahlil qilish;

- bank faoliyati oldiga qo‘yilgan maqsadga erishishda ma’muriy va operatsion jarayonlarning samaradorligini kuzatish;

-tavakkalchilikni boshqarish jarayonini qo‘llanilishini va tavakkalchilikni baholash metodologiyasining samaradorligini kuzatish;

-moliyaviy axborot tizimini, shuningdek elektron axborot tizimi va elektron bank xizmatini kuzatish;

-buxgalterlik hisoboti va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini kuzatish;

- bank kapitalining tavakkalchiligini baholash tizimini kuzatish;

- bank faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki me’yoriy hujjatlariga muvofiqligini nazorat qilish;

-doimiy taqdim etiladigan hisobotlarning to‘liq va o‘z vaqtida taqdim etilishini nazorat qilish;

-Buxgalteriya kitobi va moliyaviy hisobotlarning to‘g‘riligini va ishonchliligini o‘rganish;

- Bank rahbariyati bilan birgalikda faoliyat yuritish;

- Bank kengashi talablariga binoan maxsus tekshirishlarni o‘tkazish yoki o‘tkazishga amaliy yordam berish;

-Audit xizmati tekshiruvlari jarayonida aniqlangan qonunbuzarlik holatlari

³ Sh.A.Rajabov “Tijorat banklarida ichki audit xizmati va uni takomillashtirish” magistrlik dissertatsiyasi Toshkent – 2019 5-b

to‘g‘risida bank Kengashiga axborot berish.

Tadqiqot metodologiyasi

Sohaga oid ko‘plab adabiyotlar va me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda ichki audit tushunchasiga ta‘riflar va izohlar berilgan. Ichki auditorlar instituti (The institute of internal auditors) tomonidan berilgan ta‘rifga ko‘ra “Ichki audit bu tashkilot faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan mustaqil, xolis kafolatlar va maslahatlar berish faoliyatidir. Ichki audit tashkilotga o‘z faoliyatidagi risklarni boshqarish, nazorat hamda korporativ boshqaruv jarayonlarining samaradorligini baholash va yaxshilashga tizimli va izchil yondashish orqali amalga oshirishda ko‘maklashadi”⁴.

O‘zbekiston Respublikasining «Tijorat banklarining ichki auditiga Markaziy bank tomonidan qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida»gi NIZOMda ichki auditga quyidagicha ta‘rif keltirilgan: Ichki audit — bank xodimlarining o‘z vazifalarini samarali bajarishlariga yordam berish maqsadida bank faoliyatini tekshirish va baholash uchun bank ichida doimiy asosda tuzilgan mustaqil ekspertiza. Ichki auditning asosiy maqsadi bo‘lib Ichki audit xizmati tomonidan bank rahbariyatiga bank faoliyatining nazorati va natijalari bo‘yicha xolisona tahlil, baho, tavsiyalar va ma‘lumotlar taqdim etish orqali bank Kengashi va Boshqaruviga bank faoliyati maqsadiga erishishiga ko‘maklashish hisoblanadi (NIZOM, 2000).

Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan A.I.Aliqulov, R.D.Dusmurov, A.K.Ibragimov, B.I.Isroilov, I.N.Ismanov, A.A.Karimov, Z.T.Mamatov, S.U.Mehmonov, A.X.Pardaev, M.Q.Pardaev, M.M.Tulaxodjaeva, A.J.Tuychiev, K.B.Urazov, B.Q.Xamdamov, Z.N.Qurbanov, I.N.Qo‘ziev⁵ lar audit tizimini takomillashtirish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. B.A.Xasanov o‘z ilmiy izlanishlarida ichki audit xizmatini kompyuterlashtirish tizimiga alohida to‘xtalgan⁶.

N.F.Karimovning ilmiy ishlarida tijorat banklarida ichki auditni tashkil etish va uning uslubiyotini takomillashtirish jihatlari o‘rganilgan⁶. K.B.Axmadjonov tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ichki audit metodologiyasini takomillashtirishning ayrim masalalari ochib berilgan⁷.

Ilmiy izlanishlar jarayonida “ichki audit” tushunchasiga mualliflik ta‘rifi ishlab chiqildi va unga ko‘ra ichki audit risklarni boshqarish, ichki nazorat tizimlarining ishonchliligi va samaradorligini, jumladan, korporativ boshqaruv amaliyotini ichki nazorat sohasidagi umum-qabul qilingan xalqaro va milliy standartlari asosida muntazam va mustaqil ravishda baholash uchun tashkil etilgan faoliyat sifatida sharhlab o‘tilgani.

Ichki audit o‘z mohiyatiga ko‘ra subyekt faoliyatining barcha jihatlari bo‘yicha

⁴ Axmadjonov K.B. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida ichki audit metodologiyasini takomillashtirish. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoref. – T.: 2016. – 76 b

⁵ Aliqulov A.I. Xarajatlar hisobi va tahlilining nazariy hamda amaliy masalalari. – T.: Fan va texnologiya, 2011. – 188 b

⁶ Xasanov B.A., Aliboev Z.A., Zokirova M.Sh. Ichki auditni avtomatlashtirish asoslari. – T.: Fan, 2003. – 160 b

⁷ Karimov N.F. Tijorat banklarida ichki auditni tashkil qilish va uning uslubiyotini takomillashtirish muammolari. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoref. – T.: 2007. – 36 b

axborot va ma'lumotlarni umumlashtirish, tahlil qilish uchun vosita to'plash imkoniga ega bo'ladi, hamda ichki audit bilan uzviylikda aloqada bo'lish boshqaruvchi tomonidan qabul qilinadigan qarorlar samaradorligini oshishiga olib keladi.

Kichik miqyosdagi izlanish va tahlillarimizga ko'ra aytish mumkinki, mamlakatimiz bank tizimida auditorlik tanlovlari jarayonida qo'llanilayotgan «Audit Sampling» dasturi U.Saxobov va A.Bubnovlar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u auditorlik tekshiruvining faqat bitta mavzusini qamrab olgan, xolos. Dasturni ishlab chiqishda tijorat banklari tomonidan har oyda Markaziy bankka taqdim etiladigan kredit qarzi hisoboti asos qilib olingan. Kredit faoliyatini tasodifiy tekshirish nuqtai nazaridan TIF Milliy banki filiallari tarmog'ini tekshirishda mazkur kompyuter dasturidan foydalanilgan. «Audit Sampling» (Auditorlik tanlash) kompyuter dasturi modeli statistik va statistik bo'lmagan tanlab olishning barcha bosqichlarini to'liq avtomatlashtirishni ta'minlovchi birinchi ishlanma hisoblanadi.

Yuqoridagi ilmiy izlanishlarda ichki audit rejasini tuzish, ichki auditning ishchi hujjatlarini tayyorlash, yig'ma hisobotni tuzish, ichki audit uslubiyotini takomillashtirish, ichki auditorlarni xalqaro darajada sertifikatlash tizimi to'liq o'rganilmaganligi masalaning dolzarbligi va ilmiy tahlil qilish ehtiyoji mavjudligini ko'rsatadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Umuman olganda Barcha korxonalar uchun sifatli va doimiy nazorat zarur. Nazoratning yolga qo'yilgan tizimi ish faoliyati davomida yuzaga keladigan xatolarga to'sqinlik qilishi va shundan kelib chiqib noto'g'ri, foydasiz yechimlarni qabul qilish va zararlar kelib chiqishining oldini olishi mumkin.

Ko'pchilik mutaxassislarning fikricha, ichki nazorat tizimi korxonada ichki audit xizmati tomonidan amalga oshirilsagina, yaxshi va aksincha taftish komissiyasiga yuklatilganda yomon ishlaydi. Boshqa mutaxassislar esa — ichki audit — bu ichki nazorat tizimining bir bo'g'ini, deb hisoblaydilar.

Shu jumladan, ichki auditni tashkil qilishdagi muhim jihatlardan biri auditorlar hisoblansa, yana bir mahalliy olimimiz B.Xasanov ichki audit va auditorlar tushunchalarini umumlashtirgan holda quyidagi: “xalqaro amaliyotga muvofiq holda ichki auditorlar xo'jalik subyektlari (tizimi) xizmatchilari hisoblanadilar. Shu munosabat bilan ichki auditni ichki xo'jalik auditi deb atash mumkin” degan fikrni ilgari surgan⁸.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarini transformatsiyalash sharoitida, ular faoliyatini xalqaro miqyosida rivojlantirish choralari amalga oshirish, shuningdek, kreditorlar va investorlarning bank faoliyati to'g'risida aniq ma'lumotlarga ega bo'lishlarini ta'minlashda muhim masalalardan biri ularning faoliyatini xolisona nazorat qilish hisoblanadi. Tijorat banklarining ichki nazorat tizimi va buxgalteriya

⁸ Yadgarova M.L., Qurbonov R.B. (2019) “Bank auditi” Darslik/ —T.: «Iqtisod-Moliya»,- 320b.

hisobi tizimiga baho berishda ichki audit tekshiruvlari muhim ahamiyatga egadir.

Ichki nazorat — doimiy, kundalik faoliyat bo‘lib, o‘z navbatida, buxgalteriya hisobini to‘g‘ri olib borish, korxonada resurslaridan boshqarma rejalariga mos ravishda foydalanish imkonini beradi.

Moliyaviy hisobot auditining maqsadi va umumiy tamoyillari Xalqaro audit standartlari to‘plamining alohida hujjatlarida keltirilgan va Hisobot haqqoniyligini tasdiqlovchi tamoyillar standarti deb ataladi (International Framework for Assurance Engagements, ISQC). Mazkur hujjatda hisob haqqoniyligini tasdiqlovchi vazifalarning maqsadi va elementlari qayd etilgan. Asosiy tamoyillar audit o‘tkazishdagi me‘yor va amallarni bajarilishini belgilamay umumiylik xarakteriga ega.

Audit o‘tkazish me‘yor va amallari 200 — AXS “Moliyaviy hisobot auditining maqsadi va uni tartibga soluvchi umumiy tamoyillar” nomli standart bilan boshqariladi. Ammo, shuni qayd etish kerakki audit moliyaviy hisobotni tasdiqlovchi vazifalarning ko‘rinishlaridan birigina bolishiga qaramay uning tasdig‘i salmoqlidir. Moliyaviy hisobot haqqoniyligini tasdiqlovchi boshqa vazifalar Moliyaviy hisobot haqqoniyligini tasdiqlovchi vazifalar (International Standards on Assurance Engagements, ISAE) va Umumiy nazorat bo‘yicha vazifalarning xalqaro standartlari (International Standards on Review Engagements, ISRE) bilan tartibga solinadi.

Xalqaro talablarga ko‘ra ichki auditni tashkil etishda professional buxgalter-auditor tomonidan ma‘lumot haqqoniyligini tasdiqlash vazifasi olinsa u quyidagilarga ishonch hosil qilishi kerak:⁹

- axloqiy me‘yorlarga rioya etish mumkinligi (asosan mustaqillik va professional kompetentlik);
- vazifa barcha zarur xarakteristikalariga egaligi;
- obyekt vazifasini tekshirish vazifasiga uyg‘unligi;
- vazifada foydalaniladigan mezonlarning foydalanuvchilar uchun mosligi;
- professional buxgalter tomonidan dalillarni yig‘ish imkoniyatlari;
- professional buxgalter tomonidan to‘liq xulosa yoki cheklangan xulosa berish yozma hisobotda aks ettirilishiga;
- mazkur vazifani qabul qilish uchun professional buxgalterda yetarli asos mavjudligi;
- mazkur standartlar asosida belgilangan qo‘shimcha talablarga amal qilinishiga.

Yuqoridagi fikrlar asosan tashqi auditga tegishlidir. Quyida ichki auditga berilgan ayrim ta‘riflarni keltirib o‘tamiz. N.V.Fadeykina “Bank nazorati va audit” kitobida “Ichki audit — bu korxonada manfaati uchun qoida bo‘yicha ushbu korxonada xodimlari hisoblangan ichki auditorlar tomonidan amalga oshiriladigan tekshirish va uning faoliyatiga baho berishdir” degan fikrni ilgari suradi.

Ayni paytda, bank ichki auditini olib borish, uning faoliyatida muammolarni


⁹ B.Q.Hamdammov “Auditning xalqaro standartlari” darslik Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2020 49-b

bartaraf etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Iqtisodiyotni yuqori sur'atlarda rivojlanishi bank tizimi, shuningdek undagi ichki audit tuzilmalari faoliyatiga yangi talablar belgilamoqda.

Birinchidan, ichki nazorat tizimini axborotning ishonchliligi, qonun hujjatlariga muvofiqligi, aktivlarning saqlanishi, alohida operatsion va tarkibiy bo'linmalar faoliyatining samaradorligi va samaradorligi nuqtai nazaridan baholash uchun mo'ljallangan.

Ikkinchidan, u risklarni boshqarish tizimlarining samaradorligini tahlil qilishi va baholashi va xavflarni kamaytirish usulini taklif qilishi kerak.

Uchinchidan, tijorat banklarining boshqaruv tizimining korporativ boshqaruv tamoyillari, maqsadlari va vazifalari muvofiqligini baholash vazifasi yuzaga kelmoqda. Ichki audit bank xatarlarini boshqarish, nazorat qilish va korporativ boshqaruv jarayonlari samaradorligini baholash va yaxshilash uchun tizimli va izchil yondashuvdan foydalangan holda o'z maqsadlariga erishishga yordam beradi.



1-chizma. Ichki audit ta'sir omillari

Bizning fikrimizcha, yaxshi tashkil qilingan ichki nazorat tizimini quyidagilar ta'riflab berishi mumkin:

- ma'lumotlar to'plash tizimi mavjud xatolarni o'z vaqtida aniqlash imkonini

beradi;


- javobgarlikning amaldagi tizimi korxonada xodimlariga har qanday shartnomani boshidan oxirigacha yakka o‘zi, ya’ni o‘zboshimchalik bilan amalga oshirishiga yo‘l qo‘yilmaydi;

- har qanday muomalalarni kelishtirish tizimi mavjud;
- qimmatliklar va asosiy vositalarni ro‘yxatdan o‘tkazish doimo olib boriladi;
- buxgalteriya hisoboti va rejadan og‘ishlar tahlil qilinadi.

Ichki nazorat tizimini baholashda auditor ikkita asosiy omildan kelib chiqadi:

1. Ichki nazorat maqsadidan, ya’ni buxgalteriya hisobotining haqqoniy va obyektivligini ta’minlashdan;

2. Auditorlik xulosalarining tahliliy qismida ichki nazorat holati ekspertizasining natijalarini ko‘rsatish zarurligidan.



1-rasm. Tijorat banklarida ichki auditni tashkil qilishning afzalliklari¹⁰

Masalani hartomonlama o‘rgangan holda Audit nazariyasi va amaliyotida xalqaro darajada qo‘llanayotgan bir qator samarali usullarni bayon etishga harakat qildik:¹¹

-solishtirish usuli (iqtisodiy hodisalar, ko‘rsatkichlarni o‘zaro va biznes-reja bilan solishtirish);

¹⁰ Murtazayeva Zuhra Farxod qizi “Tijorat banklarida ichki audit tekshiruvlarini tashkil etish tartibi va o‘ziga xos xususiyatlari” Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil jurnali I SON — YANVAR, 2024 80-b

¹¹ Tulaxodjaeva M.M v.b «Audit» (darslik). Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti. Iqtisodiyot, 2019 y. 11- b.

-gipoteza usuli (hodisalarning sodir bo'lishi, natijalari turli shart-sharoitlarni e'tiborga olgan holda o'rganiladi. Bunday usul ko'pincha "yashirin iqtisodiyot" natijalarini aniqlashda keng foydalaniladi);

-tahlil va sintez usuli (audit ob'ekti bo'lgan ma'lum ko'rsatkich omillar asosida o'rganiladi, mavjud ichki imkoniyatlar aniqlanadi);

-taftish usuli (tashkilot yoki muassasaning faoliyatiga to'liq baho berish uchun barcha operatsiyalar tasdiqlovchi nazoratidan o'tkaziladi);

-inventarizatsiya usuli (tashkilotdagi huquqiy aktivlar va majburiyatlarning buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga monandligi tekshiriladi);

-kalkulyatsiya usuli (bajarilgan ishlar, ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi, tijorat banklarida esa qimmatli qog'ozlar aksiya va kredit xizmatlari va boshqa operatsiyalarning bahosi aniqlanadi);

-ekspertiza usuli (hujjatlarning realligini, haqqoniyligi, mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlari laboratoriya yo'li bilan aniqlanadi);

-buxgalteriya schyotlari va ikkiyoqlama yozuv usuli (bank aktivlari va majburiyatlarining harakati hamda qoldiqlari buxgalteriya hisobi schyotlari orqali tekshiriladi);

Shuni ta'kidlash kerakki, ichki audit ko'p ishlarni amalga oshirishi mumkin, ammo bu banklar va korxonalarining barcha muammolarini universal hal qilish yo'li emas. Masalan, ichki audit quyidagilarni amalga oshirishi mumkin:

➤ tizimlar yoki protseduralarni tekshirish orqali ularning ehtimolini minimallashtirish va erta aniqlash ehtimolini oshirish, lekin inson xatosi yoki suiiste'molining barcha holatlarini bartaraf etmaslik yoki aniqlamaslik;

➤ xavflarni dastlabki tahlil qilish asosida tekshiriladigan yo'nalishlar/bo'linmalar tanlashni optimallashtirish, lekin har bir biznes jarayonini har yili tekshira olmaydi;

➤ ichki nazorat tizimi doirasida boshqa bo'limlar yoki bo'limlar tomonidan ishlab chiqilgan tartiblarni ularning samaradorligini tekshirish, lekin u bo'limlar yoki bo'limlar uchun tartiblarni ishlab chiqmasligi kerak, chunki bu ichki auditning mustaqilligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi¹².

Tijorat banklarida ichki audit funksiyalari turli qiyinchiliklarga duch keladi, jumladan, resurslarni cheklash, o'zgaruvchan tartibga solish landshaftlari va texnologik yutuqlar. Ushbu muammolarni bartaraf etish va ichki audit funksiyasi samaradorligini oshirish uchun xalqaro tajribalar va standartlarga tayangan holda tijorat banklariga quyidagilar tavsiya qilinadi:

¹² Тогаев С. (2016) "Bank ishi" fanidan uslubiy qo'llanma //Scienceweb academic papers collection

1-jadval

| |
|--|
| Audit samaradorligini oshirish uchun ilg‘or texnologiyalar va ma’lumotlarni tahlil qilish vositalariga sarmoya kiriting. |
| Xatarlar va nazoratlarning har tomonlama ko‘rinishini ta’minlash uchun muvofiqlik va ichki nazorat kabi risklarni boshqarishning boshqa funksiyalari bilan hamkorlikni kuchaytirish. |
| Ichki audit amaliyotini sanoat standartlari va ilg‘or tajribalar bilan uyg‘unlashtirish uchun mustahkam sifat kafolati va takomillashtirish dasturini amalga oshirish. |
| Tashkilot uchun mukammallik va qadr-qimmatga erishish uchun ichki audit funksiyasi doirasida shaffoflik, hisobdorlik va doimiy takomillashtirish madaniyatini tarbiyalash. |

XULOSA VA TAVSIYALAR

Umuman olganda tijorat banklari ichki auditni amalga oshirishda auditning xalqaro standartlarini qo‘llash va amaliyot jarayonida qo‘llashda tegishli tartibdagi tashkiliy ishlarni bajarish, moliyaviy hisobotlarni shakllantirishda xalqaro audit standartlari asosida auditorlik amallarini bajarish lozim. Bizning nazarimizda quyidagilar mazkur jarayonning samaradorligi va modernizatsiyasi uchun to‘ldiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi:

- ✓ tijorat banklarining ichki audit tizimiga xalqaro audit standartlarini joriy qilish natijasida banklarning ichki auditini amalga oshirish metodikasi asosida ichki auditni rejalashtirish, audit metodologiyasi asosida risklarni baholash bo‘yicha takliflar berish;

- ✓ xalqaro audit standartlarini bank ichki auditi amaliyotiga joriy qilish orqali uning usullari va texnikasi, bank buxgalteriya hisobidagi ishchi schyotlar rejasi, hisob registrlari, hujjatlar aylanishini kompyuter tizimida tegishli dastur asosida nazorat qilish metodikasini ishlab chiqish;

- ✓ xalqaro miqyosda qabul qilingan audit standartlar vositasida ichki audit metodologiyasini ishlab chiqish va ichki audit xodimlari faoliyatini rejalashtirish, auditor va auditor yordamchilari o‘rtasida xizmat vazifalarini taqsimlash, ichki audit rejasi va dasturini ishlab chiqish, bosh auditorni huquq va majburiyatlarini belgilash.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tijorat banklarining ichki audit xizmati bankning boshqaruv organlariga bankning nazorati va ishlashi bo‘yicha obyektiv tahlil, baholash, tavsiyalar va axborotni taqdim etishga katta yordam beradi. Ichki audit tijorat bankining ichki nazorat tizimining asosiy elementi bo‘lib, xatarlarni kamaytirishga va ijro intizomini to‘g‘ri darajada ushlab turishda o‘rni beqiyosdir. Shu jihatdan ham ichki audit xizmatining xalqaro uslubiyotini respublika bank tizimidagi joriylanishi va integratsion rolini oshirish muhim masala hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son, <http://lex.uz/docs/3107040>
2. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasiga murojaatnomasi. 2020-yil 25yanvar/. –Toshkent: “O‘zbekiston”, 2020 – 30 b.
3. Rizayev Nurbek Qodirovich “Banklarda ichki auditni xalqaro audit standartlari asosida takomillashtirish” Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali 04/2024 maxsus son. 131-b
4. A.N.To‘rayev “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ichki auditni tashkil etish va uning uslubiyotini takomillashtirish” iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati Toshkent – 2019 5-b
5. Sh.A.Rajabov “Tijorat banklarida ichki audit xizmati va uni takomillashtirish” magistrlik dissertatsiyasi Toshkent – 2019 5-b
6. Axmadjonov K.B. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida ichki audit metodologiyasini takomillashtirish. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoref. – T.: 2016. – 76 b
7. Aliqulov A.I. Xarajatlar hisobi va tahlilining nazariy hamda amaliy masalalari. – T.: Fan va texnologiya, 2011. – 188 b
8. Xasanov B.A., Aliboev Z.A., Zokirova M.Sh. Ichki auditni avtomatlashtirish asoslari.–T.: Fan, 2003. – 160 b
9. Karimov N.F. Tijorat banklarida ichki auditni tashkil qilish va uning uslubiyotini takomillashtirish muammolari. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoref. – T.: 2007. – 36 b
10. Yadgarova M.L., Qurbonov R.B. (2019) “Bank auditi” Darslik/ —T.: «Iqtisod-Moliya»,- 320b.
11. B.Q.Hamdammov “Auditning xalqaro standartlari” darslik Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2020 49-b
12. Murtazayeva Zuhra Farhod qizi “Tijorat banklarida ichki audit tekshiruvlarini tashkil etish tartibi va o‘ziga xos xususiyatlari” Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil jurnali I SON — YANVAR, 2024 80-b
13. Tulaxodjaeva M.M v.b «Audit» (darslik). Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti. Iqtisodiyot, 2019 y. 11- b.
14. Toraeb C. (2016) “Bank ishi” fanidan uslubiy qo‘llanma //Scienceweb academic papers collection